

GIVING STABLE COMPOUNDS AND EXPRESSIONS IN TRANSLATION

**(In the example of translation of the work Rita Hayworth and
Shawshank Redemption)**

Khilola Uktamovna YUSUPOVA¹
Associate Professor of the Department
of English Literature and Stylistics
Bukhara State University

Abstract

This article analyzes the problems and achievements of the art of translation, as well as the shortcomings in the translation of works that are currently being translated. An integral part of the development of world literature is the field of translation studies because the translation is the reason why the literature of nations penetrates into the life of other countries and peoples. It is the translation and the results of the work done in this area that serve as a spiritual and cultural bridge between nations and peoples.

Key words: Translation, word, phrase, fixed conjunctions, free conjunctions, phraseological units.

TARJIMADA TURG'UN BIRIKMA VA IBORALARNING BERILISHI **(“Rita Xeyvort yoki Shoushenkdan qochish” asari tarjimasida)**

Hilola O`ktamovna YUSUPOVA¹
Buxoro davlat universiteti
Ingiliz adabiyoti va stilistika kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarjima san'ati undagi muammolar va yutuqlar, hozirgi davrda tarjima qilinayotgan asarlar tarjimasidagi kamchiliklar tahlil qilingan. Jahon adabiyoti taraqqiyotining ajralmas yo`nalishi – bu tarjimashunoslik yo`nalishidir, chunki aynan tarjima sabab xalqlar adabiyoti boshqa mamlakat va elatlar hayotiga kirib boradi. Aynan tarjimashunoslik va bu sohada qilingan ishlar natijasi millat va elatlar o`rtasida ham ma`naviy, ham madaniy ko`prik sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Tarjima, so'z, so'z birikmasi, turg'un birikmalar, erkin birikmalar, frazeologik birliklar.

Jahon adabiyoti taraqqiyotining ajralmas yo`nalishi – bu tarjimashunoslik yo`nalishidir. Chunki aynan tarjima sabab xalqlar adabiyoti boshqa mamlakat va elatlar hayotiga kirib boradi. Aynan tarjimashunoslik va bu sohada qilingan ishlar natijasi millat va elatlar o`rtasida ham ma`naviy, ham madaniy ko`prik sifatida xizmat qiladi. Tarjima taraqqiyoti nafaqat shu sohaning, balki fan va texnikaning, madaniyat va ma`rifatning, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarning rivojini ta'minlab beradi. Tarjima tahlillari va muqoyasasi tili va madaniyati uzoq bo`lgan bir millatning o`ziga xos xususiyatlarini boshqa millat vakillariga tanishtirishda yaqindan yordam beradi, shu bilan bir qatorda dunyo xalqlari tamaddunida vositachi vazifasini o`taydi.

“Ma'lumki, tarjimada bitta tushunchaga bitta tushunchaning to'g'ri kelish holatlari nisbatan kam uchraydi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, tarjimada so'zga so'z, so'zga so'z birikmasi, hatto bitta so'zga to'g'ri keladigan frazeologik birlikni ham tushunishimiz mumkin.”¹ Bunda biz o'quvchilar mutarjimning mahorati va tajribasining qay darajada ekanligini bilib olishimiz mumkin:

"I even arranged for a midnight showing of Deep Throat and The Devil in Miss Jones for a party of twenty men who had pooled their resources to rent the films . . . although I ended

¹G`ofurov I. va b. Tarjima nazariyasi. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2012. 106-b.

up doing a week in solitary for that little escapade. It's the risk you run when you're the guy who can get it.”²

“Я даже организовал ночной показ фильмов «Огромная пасть» и «Дьявол в мисс Джонс» для двадцати мужиков, которые скинулись, чтобы заплатить за сеанс... хотя после этого я отдыхал где-то с неделю в одиночке. Ну да ладно, не беда. Кто не рискует, тот не пьет шампанское”.³

“Men hatto bir seansi uchun o’rtada aqcha to’plagan yigirma kishiga “Ulkan haybatli og’iz” va “Jons xonimning iblisi” filmlarining tungi namoyishini tashkillashtirganman. Seansdan keyin bir haftacha yolg’iz kamerada toza ta’zirimni yeganman. Ha, mayli, bu bilan osmon uzilib yerga tusharmidi!? Toqqa chiqmasang, do’lana qayda, jon kuydirmasang jonona qayda.”⁴

Belgilangan gapning rus va o’zbek tillaridagi tarjimasiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, har ikkala tarjimon ham gapni frazeologik nuqtai nazarga asoslangan va shu bilan birga asl ma’noni yo’qotmagan holda o’z tillariga tarjima qilganlar. Bunda o’zbek tarjimonining rus tilidagi “кто не рискует, тот не пьет шампанское” iborasini o’zbekchaga “toqqa chiqmasang, do’lana qayda, jon kuydirmasang jonona qayda” milliy iborasi orqali o’girishi, ayniqsa, tarjima variantini ko’rkamlashtirgan, tarjimadagi frazeologik muammo yechimini topgan, deb hisoblaymiz.

“Turg’un birikmalarni tarjima qilish erkin birikmalarni tarjima qilishdan farq qiladi. Turg’un birikmalar ma’nosi alohida olingan so’zlardan emas, balki ularning yig’indisidan kelib chiqadi. Obrazga asoslangan turg’un birikmalar matnni ham stilistik jihatdan bo’yoq bo’lishini ta’minlaydi. Aslyat matnning bo’yoqdorligi tarjimada ham o’z aksini topishi va ifoda vositalarining to’liq saqlanishini talab etadi. Tarjimon matnning ifodali va bo’yoqdorligini ta’minlash maqsadida tarjima matnida ham adekvat obrazli turg’un birikmalarning variantini topishi lozim bo’ladi. Masalan, “A burnt child dreads the fire – og’zi kuyga qatiqni ham puflab ichadi”, “look not a gift horse in the mouth – berganning betiga qarama” va hokazo.”⁵ Ushbu holat biz tahlil etayotgan qissa tarjimasida ham uchrab turadi:

“Seven men sit on the board, two more than at most state prisons, and every one of those seven has an ass as hard as the water drawn up from a mineral-spring well.”⁶

“В коллегии сидит семь человек, на два больше, чем в остальных тюрьмах, и каждый из этих семерых имеет ледяной рассудок и каменное сердце”.⁷

“Sud hay’atida yetti kishi o’tirardi, bu boshqa turmadagilarga nisbatan ikki barobar ko’p

²King S. Rita Hayworth and the Shawshank Redemption. – NY.: Viking Press, 1982.P.2.

³Кинг С. Рита Хейворт или побег из Шоушенка. – М.: Астрель, 2010.С. 2.

⁴King S. Rita Xeyvort yoxud Shoushenkdan qochish. – T.: O’zbekiston, 2016. 15-b

⁵G`ofurov I. va b. Tarjima nazariyasi. – T.: Tafakkur bo’stoni, 2012. 152-b

⁶King S. Rita Hayworth and the Shawshank Redemption. – NY.: Viking Press, 1982.P.11.

⁷Кинг С. Рита Хейворт или побег из Шоушенка. – М.: Астрель, 2010.С.11.

*degani. Ularning yuragi toshdan, es-hushini muz qoplagan.*⁸

Aksariyat hollarda tarjimonimiz shunga o'xshash ijtimoiy-madaniy leksikamizga to'g'ri kelmaydigan iboralarni ustalik bilan muqobilini berib o'tib, tarjima ishining milliy, madaniy va axloqiy jihatlarini saqlab qolgan.

"Frazeologik birliklar o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilinmaydi. Ingliz frazeologik birikmalarining o'zbek tilidagi birikmalarga moslashishi va ekvivalenti har xil bo'lishi mumkin bo'lgan holatlar mavjud. Chunonchi, *"It was still raining hard – Yomg'ir hamon chelaklab quyay edi."*⁹

Shunga o'xshash holatlarni asar tahlili jarayonida ham ko'plab uchratishimiz mumkin:

*"I don't get all those things gratis, and for some items the price comes high."*¹⁰

*"Я не делаю все это за «спасибо», и иногда цена довольно высока"*¹¹

*"Mushuk tekinga o'ftobga chiqmaydi, deganlaridek gohida xizmat narxi osmonda bo'ladi."*¹²

Yoki bo'lmasam boshqa misolni oladigan bo'lsak:

*"And he was condemned to spend the rest of his life in Shawshank - or the part of it that mattered. Five years later he began to have parole hearings, and he was turned down just as regular as clockwork in spite of being a model prisoner. Getting a pass out of Shawshank when you've got murder stamped on your admittance-slip is slow work, as slow as a river eroding a rock."*¹³

*"А он теперь обречен провести всю свою жизнь, или значительную ее часть, в Шоушенке, В этой чертовой дыре. Выйти отсюда, когда в вашей карточке стоит пометка «убийство», довольно сложно. Сложно и медленно, как каплям воды раздробить камень"*¹⁴

*"Endi Dufreyn endilikda butun umrini yoxud umrining talay qismini iblisning makoni bo'lmish Shoushenkda o'tkazishga mahkum. Kartochkangizda "Qotillik" belgisi turganidan keyin bu yerdan ozodlikka chiqishni o'ylash tuya hammomni orzu qilgani kabidir. Erkinlikka chiqish suv toshni tomchilab maydalashidek imillaydi."*¹⁵

Yuqorida keltirilgan misoldagi "slow work" so'z birikmasi bilvosita tarjimada "tuya hammomni orzu qilgan kabidir" deya ifodalanishi o'zbek milliy iborasining o'z o'rnida

⁸King S. Rita Xeyvort yoxud Shoushenkdan qochish. – T.: O'zbekiston, 2016.31-b.

⁹G'ofurov I. va b. Tarjima nazariyasi. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2012. 161-b.

¹⁰King S. Rita Hayworth and the Shawshank Redemption. – NY.: Viking Press, 1982.P.2.

¹¹Кинг С. Рита Хейворт или побег из Шоушенка. – М.: Астрель, 2010. С.2.

¹²King S. Rita Xeyvort yoxud Shoushenkdan qochish. – T.: O'zbekiston, 2016.15-b.

¹³King S. Rita Hayworth and the Shawshank Redemption. – NY.: Viking Press, 1982. P.11.

¹⁴Кинг С. Рита Хейворт или побег из Шоушенка. – М.: Астрель, 2010. С.11.

¹⁵King S. Rita Xeyvort yoxud Shoushenkdan qochish. – T.: O'zbekiston, 2016.31-b.

qo'llanilganini izohlab keladi. Tarjimonimiz S.Saidmurodov ushbu yo'l orqali o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini, uning tom ma'noda juda boy til ekanligini ko'rsatib bergan hamda bu orqali kitobxon nazdida so'zlovchining qanchalik gapga chechanligini ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan. Ammo asar matnidagi *"Five years later he began to have parole hearings, and he was turned down just as regular as clockwork in spite of being a model prisoner"* gapini to'liqligicha tarjima qilinmagan. Buni *"besh yil o'tar-o'tmas Endi shartli ravishda muddatidan oldin ozod etish komissiyasi suhbatiga kirishni boshlaganda, garchi u mo'min-qobil mahbus bo'lishiga qaramay komissiya bu ishni soat mexanizmi kabi doimo ortga tashlayverdi."* yo'sinida tarjima qilish va bu orqali o'sha paytlardagi o'ta og'ir jinoyat qilgan kishilarga nisbatan ham tez-tez shunday imtiyozlar berilishi, ammo hamma ham unga erisha olmasligi haqida kitobxonga ma'lumot berib o'tishi bizningcha aslyat matning nozik jihatlarini ochib berishda katta rol o'ynar edi.

References

1. G`ofurov I. va b. Tarjima nazariyasi. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2012.
2. King S. Rita Hayworth and the Shawshank Redemption. – NY.: Viking Press, 1982.
3. Кинг С. Рита Хейворт или побег из Шоушенка. – М.: Астрель, 2010.
4. King S. Rita Xeyvort yoxud Shoushenkdan qochish. – T.: O'zbekiston, 2016.